

TALABALARDA MILLIY IFTIXOR TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY XARAKTERI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10279379>

Sultanova Shaxnoza Saydullayevna

Alfraganus Universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya

Oliy ta'lif muassasalarining talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish muammosi ijtimoiy xarakterga ega. Binobarin, talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish ularni Vatan ravnaqi, yurt obodligi va xalq farovonligi yo'lida fidokorona mehnat qilishga undaydi. Ushbu maqola talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning ijtimoiy xarakteri to'g'risida.

Kalit so'zlar

oliy ta'lif, talabala, milliy iftixor, ijtimoiy xarakter, vatan ravnaqi, yurt obodligi, xalq farovonligi, fidokorona mehnat.

Talabalarda o'zi yashayotgan jamiyatda tinchlik va xavfsizlikning barqaror bo'lishi yo'lida kurashish, turli millat va elatga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro inoqlikning qaror topishiga o'z ulushini qo'shishga intilish ko'nikmalarining shakllanishi hamda millat vakili sifatida o'z qadr-qimmatini anglab yetishlarini ta'minlaydi.

Talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish uzoq muddatli, tizimli va izchil yondashuvni talab etuvchi pedagogik faoliyat jarayonidir. Bu jarayon barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalash borasidagi ijtimoiy maqsadni amalga oshirish borasidagi yaxlit jarayonning muhim tarkibiy qismi sanaladi.

Oliy ta'lif muassasalari talabalarida milliy iftixorni shakllantirishda quyidagi omillar ustuvor o'rinn tutadi:

1. Subyektiv omillar:

- jamiyatda sog'lom muhitning qaror topganligi, shaxsning o'zligini anglashiga yordam beruvchi g'oyalarning yetakchi o'rinn tutishi;
- kishilik munosabatlarining yangicha mazmun kasb etishi;
- milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi, ularni boyitish yo'lida muayyan harakatlarning tashkil etilishi;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unligiga erishish;

- ijtimoiy munosabatlarda insonparvarlik, demokratik g'oyalarning aks etilishi;
- oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda oila, o'quv yurtlari va keng jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishiga erishish;
- shaxs ongini shakllantirishga oid umumbashariy tajribalarni o'rganish va ulardan foydalanish;
- oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga e'tiborning qaratilganligi;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda talabalarning istak va xohishlarini inobatga olish, unda har qanday zo'rlik va majburlovlardan voz kechish;
- talabalarda milliy iftixorni anglash ehtiyojining yuzaga kelganligi;
- talabalarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda dunyoqarashi keng, hayotiy tajribasi boy, mohir notiq, mustahkam e'tiqod va o'zgalarga ibrat bo'la oluvchi hayot tarziga ega pedagoglarning kuchlariga tayanish va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish chora-tadbirlarining ko'rilganligi;
- oliy ta'lim muassasalarining talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning mukammal tizimi (mazmuni, shakl, metod va vositalari)ning yaratilganligi;
- oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirish andozasining yaratilganligi va hokazolar.

2. Obyektiv omillar:

- oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga imkon beruvchi zamonaviy ilm-fan, texnika, texnologiya va madaniyat yutuqlariga asoslangan moddiy bazaning mavjudligi;
- shaxsda milliy iftixor tuyg'usini shakllantiruvchi g'oyalar singdirilgan o'quv manbalari (o'quv dasturi, qo'llanma, darslik, didaktik materiallar hamda ko'rgazmali qurollar)ning yaratilganligi;
- oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda axborotli texnologiyalar (ommaviy axborot vositalari - gazeta, jurnal, radio, televideniye va kompyuter) xizmatidan foydalanishning yo'lga qo'yilganligi va boshqalar.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishda ijtimoiy muhit va uning mazmuni o'ziga xos ahamiyatga ega. Zero, talabalarning umumiyl shakllanishiga ta'sir etgani kabi ularda milliy iftixor tuyg'usining qaror topishida ijtimoiy ta'sirlar yetakchi o'rinn tutadi.

Milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar, ularda ilgari surilgan g'oyalar inson ruhiyatining shakllanishi, unda ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalashga xizmat qiladi. Milliylikni belgilovchi omillardan biri urf-odat, an'ana va qadriyatlardir.

Shu sababli inson ham millat vakillaridan biri sifatida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrash, ularni yanada boyitish to'g'risida qayg'urishi zarur. O'z navbatida milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlar g'oyalarining millat ravnaqi, insoniyat taraqqiyotiga xizmat qilishi bilan faxrlanish talabalarning milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. O'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda talabalarni milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarni asrash, ularni boyitish uchun harakat qila olish ko'nikmalarini tarbiyalashga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq.

Talaba-yoshlarda milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishning bevosita ishtirokchilari va mas'ullari hisoblanuvchi pedagoglar quyidagi xislatlarga ega bo'lishlari lozim:

1. Jamiyatda o'z mavqelariga ega bo'lishlari, boshqalarga har jihatdan o'rnak bo'lishlari zarur. Agar o'qituvchi ma'naviy qashshoq, ta'magir bo'lsa, auditoriyada hech qanday natijaga erisha olmaydi.

2. Mustaqil fikrga ega bo'lishlari kerak. Shundagina ular talabalarda mustaqil fikrlash, o'z mulohazalarini erkin bayon etish ko'nikmalarini shakllantira oladilar.

3. Ular o'zlari yashayotgan jamiyatda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning mohiyatini tez va to'g'ri anglay olishlari, millat tarixi va madaniyatidan xabardor bo'lishlari, vatanparvarlik xislatiga ega bo'lishlari lozim.

4. Ular milliy istiqlol g'oyasi va mafkura asoslarini to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish, ular haqida talabalarni xabardor eta olishlari kerak.

5. Ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondoshishlari, pedagogik faoliyatlarida ilg'or texnologiyalarni samarali qo'llay olishlari maqsadga muvofiq.

6. Har bir darsning muvaffaqiyatini ta'minlovchi omillardan biri o'qituvchi va talabalar o'rtasida samimiyl, o'zaro hamkorlikka asoslangan munosabatni qaror toptira olish sanaladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Almetov N.SH. O'quv-tarbiya jarayonida xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish //O'qit.uchun.qo'll. - Chimkent, Jan.KozMITI, 2013. – 90 b.

2. Бабилаев А.Н. Национальная психология как явление общественной жизни: Автореф. дисс... канд. пед. наук. – М.: 2011. – 21 с.

3. Baxranov Sh. Shaxs milliy o'zligini anglash qonuniyatlari. – Samarqand: Zarafshon, 2015. – 136 b.

15. Gappirov B.T. Talabalarda axloqiy o'z-o'zini anglashning o'quv jarayonidagi dinamik taraqqiyoti: Psix.fanl.nomz. ... diss. – T.: 1993. – 133 b.